



## ILK GESTOZ HOLATIDAGI HOMILADORLARNING PARVARISH QILISHNING XUSUSIYATLARI

Nuriddinova Dilafruzxon

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Qo'qon jamoat salomatligi texnikumi  
Akusherlik va ginekologiya fani o'qituvchisi.  
Qo'qon, O'zbekiston.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ilk toksoz etiologiyasi va patogenezi, tasnifi to'g'risida tushunchalar berilgan va ilk gestoz tashxisi qo'yilgan homilador ayollarga davolash usullari, muhim tavsiyalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** homiladorlik toksozlar(HT), gipnosuggestiv terapiya, markaziy elektroanalgeziya, igna refleksoterapiya, medikamentoz terapiya.

**Аннотация.** В статье представлены сведения об этиологии, патогенезе и классификации первичного токсикоза, а также методах лечения и важных рекомендациях для беременных с диагнозом первичный гестоз.

**Ключевые слова:** токсикоз беременных (ГТ), гипносуггестивная терапия, центральная электроанальгезия, игольная рефлексотерапия, медикаментозная терапия.

**Abstract.** This article provides insights into the etiology, pathogenesis, and classification of primary toxicosis, as well as treatment methods and important recommendations for pregnant women diagnosed with primary gestosis.

**Key words:** Pregnancy toxicosis (HT), hypnosuggestive therapy, central electroanalgesia, needle reflexotherapy, drug therapy.

Homiladorlik toksozlar (HT) tushunchasi homiladorlik tufayli yuzaga kelgan va homiladorlik tugashi bilan bartaraf bo'ladigan barcha patologik holatlarni o'z ichiga oladi. HT ona va bola tomonidan asoratlarga olib kelishi mumkin, ba'zan ekstragenital patologiyalarga ham sabab bo'ladi. Toksozlar - ayol organizmida homiladorlik tufayli vujudga keladigan patologik holat bo'lib, ko'pgina simptomlar bilan namoyon bo'ladi. Ulardan asosiysi ,markaziy nerv sistemasi, qon tomirlari holatining va moddalar almashinuvining buzilishidir. Erta paydo bo'ladigan toksozlar asosan nerv, endokrin sistemasi, ovqat hazm qilish yo'llari, immunologik va boshqa sistemalar holatiga bog'liq bo'ladi Erta toksoz rivojlanish mexanizmini tushuntiruvchi nazariyalar: reflektor, nevrogen, gormonal, allergik, immunologik, kortiko-visseral.

Zamonaviy nazariyalarga ko'ra ilk va kechki toksozlar ayol organizmining rivojlanib borayotgan homiladorlikka moslasha olmayotganligi tufayli kelib chiqadi. Homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida uchraydigan hamma toksozlar ko'proq anamnezi og'irlashgan xomiladorlarda yuzaga keladi. Ularda aniq patologik ko'rinishlar bo'lmasada homiladorlik ko'zg'atuvchi omil bo'lib xisoblanadi va homiladorlik asoratlariga olib keladi.

Ilk toksikozlarning eng ko‘p uchraydigan shakli bu - quisish. Qusish klinik holatiga, laborator ko‘rsatkichlarga va uchrashiga ko‘ra 3 ta darajaga bo‘linadi: yengil, o‘rtacha og‘ir va og‘ir daraja. Bunday homiladorlarga avvalo parhez, davolovchi-himoyalovchi rejim. gipnosuggestiv terapiya, markaziy elektroanalgeziya, igna sanchish terapiyasi, refleksoterapiya, medikamentoz terapiya, M-xolinolitiklar (atropin), antigistaminlar (pipolfen, diprazin, tavegil), neyroleptiklar (galoperndol, droperidol), dofamin antagonistlari (reglan, serukal). Infuzion moddalar (kristalloidlar, kolloidlar, glyukoza, albumin, natriy bikarbonat 4%), metabolizmni kuchaytiruvchi moddalar (KKB, riboksin, vitaminlar) buyuriladi.

So‘lak oqishiga quisishdagi kabi davo qilinadi. Ayolga sharoit yaratib berish, psixoterapiya, fizioterapiya usullaridan foydalanish lozim. Davo stasionar sharoitida olib boriladi. Bu yerda bemorga tinchlantiruvchi, asab sistemasini tartibga soluvchi dorilar (sedativ), vitaminlar, glyukoza va boshqalar buyuriladi. Og‘izni marmarak, moychechak, mentol eritmasi bilan chayish xam yordam berishi mumkin. Agar so‘lak ko‘poqsa, atropindan 0,0005 grammdan kuniga 2 marta berish mumkin. Lab,lunj soxalari bichilganda vazelin, Lassar pastasi surtish lozim. Odatda muolajalardan so‘ng so‘lak oqishi kamayib, ayolda homiladorlik normal davom etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Valeologiya asoslari: (o‘quv qo’llanma) / D.D.Sharipova (va boshq.); O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: Musiqa, 2010. - 116 b. I.Sharipova, D.D., va boshqalar.
2. Boxodirov K., Boboxodjayev N. Sog‘lig’ingiz o‘z qo‘lingizda. — T.: Meditsina. Mahkamov M., Sodiqov Q.
3. Allayorov Ya.N. Akusherlik va ginekologiya: o‘quv qo‘llanma/ Ya.N.Allayorov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017
4. Parpiyeva, O. R., Nazarova, D., Ro’ziboyeva, O., & Jumaboyeva, M. (2024). SALOMATLIK–OLIY QADRIYAT SIFATIDA. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 79-81.
5. Parpiyeva, O. R., & Ostanaqulov, A. D. (2019). Health theory. Форум молодых ученых, (6 (34)), 26-28.
6. Parpieva, O. R. (2023). HEALTH IS THE HIGHEST VALUE. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 760-763.
7. Parpiyeva, O. R., & Dzhaldoldinova, O. O. (2022). The role of Valeology in raising a healthy generation. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 13, 1-3.
8. Parpiyeva, O. R. (2021). Основы медицинских знаний (часть I). Учебной пособие.
9. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproduktiv salomatlik. O‘quv qo’llanma. Fergana, Uzbekistan.
10. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproductive health.